



PRECEDENT UNITS IN WORKS OF ART (in the example of A. Qahhor's stories)

Tursunova Yulduz Yusupovna

Karshi State University

Teacher of the Uzbek language and literature department

ytursunova636@gmail.com

ORCID: 0009000946117216

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13762894>

ARTICLE INFO

Received: 06th September 2024

Accepted: 12th September 2024

Online: 14th September 2024

KEYWORDS

Linguopoetics, poetic
onomastics, poetonym,
precedent name, chrononym,
antinomy, onomastic
metonymy.

ABSTRACT

Each nation, in its speech and artistic creativity, strives to refer to the lexical units inherent in its national culture. In particular, in a work of art, the creator uses historical figures, historically significant places, historical events, mythological and textured images in order to reveal a certain content of the work. From this point of view, onomastic units in works of art manifest themselves in different states. They participate together with various associations in a literary text in accordance with the writer's artistic intention. Precedent names, which are one of such onomastic units, are studied in an interdisciplinary connection.

When studying the language of works of art, it is necessary to understand the period in which the writer lived, the conditions of writing the work, the purpose that the writer wants to express through writing the work. This is due to the science of linguopoetics, which arose at the junction of linguistics and poetics. A number of our scientists have contributed to the development of linguopoetics. X.Daniyarov, S.Mirzayev, G.Samadov, I.Kochkortoyev, H.Abdurakhmanov, N.Mahmudov, B.Umurkulov, I.Mirzayev, M. Among them are such as Yuldashev. Other researchers classify linguopoetics as: 1) poetic phonetics; 2) poetic lexicology; 3) poetic morphemics; 4) poetic semantics; 5) poetic syntax [15. 466-467].

The linguistic and poetic analysis of a literary text covers not only the linguistic, but also the substantive aspect of the work. He is able to show the harmony of the content and form of a literary text. In the linguistic and poetic analysis of a literary text, one of the most important methods is to identify units filled with poetic content. Since precedent names with poetic content are among the units



of onomastics, it is important to include poetic onomastics among the above classifications of linvopoetics.

Any science should have its own object of research. The object of the study of onomastics is any eminent types of nouns in the language. Linguopoetics, on the other hand, analyzes the artistic value of linguistic means [13. 9]. The term poetonym is used as the subject of poetic onomastics [13. 29]. Precedent names, historically formed, passed down from generation to generation and spontaneously appearing in our speech, are a kind of poetonyms.

BADIIY ASARLARDA PRETSEDENT BIRLIKLAR (A.Qahhor hikoyalari misolida)

Tursunova Yulduz Yusupovna

Qarshi davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

ytursunova636@gmail.com

ORCID: 0009000946117216

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13762894>

ARTICLE INFO

Received: 06th September 2024

Accepted: 12th September 2024

Online: 14th September 2024

KEYWORDS

Lingvopoetika, poetik
onomastika, poetonim,
pretsedent nom, xrononim,
antonomasiya, onomastik
metonimiya.

ABSTRACT

Har bir xalq o'zining nutqida va badiiy ijodida milliy madaniyatiga xos bo'lgan leksik birliklarga murojaat qilishga intiladi. Ayniqsa, ijodkor badiiy asarda tarixiy shaxslar, tarixiy ahamiyatga molik joylar, tarixiy voqea-hodisalar, mifologik va to'qima obrazlardan asarning ma'lum mazmunini ochib berish maqsadida foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlardagi onomastik birliklar turli holatlarda namoyon bo'ladi. Ular badiiy matnda yozuvchining badiiy niyatiga mos tarzda turli assotsiatsiyalar bilan birga ishtirok etadi. Ana shunday onomastik birliklardan biri bo'lgan pretsedent nomlar fanlararo aloqadorlikda o'rganilmoqda.

Badiiy asarlar tilini o'rganishda yozuvchining yashagan davri, asarning yozilish sharoiti, yozuvchining asarni yozish orqali ifodalamoqchi bo'lgan maqsadini anglash lozim. Bu esa lingvistika va poetika fanlari aloqasida vujudga kelgan lingvopoetika fani bilan bog'liq. Lingvopoetika fanining rivojlanib borishida bir qator olimlarimiz o'z hissalarini qo'shdilar. X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev kabilar shular jumlasidandir. Yana bir tadqiqotchilar lingvopoetikani quyidagicha tasniflaydilar: 1) poetik fonetika; 2) poetik leksikologiya;



3) poetik morfemika; 4) poetik semantika; 5) poetik sintaksis [15, 466-467].

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish asarning tili, balki mazmun jihatini ham qamrab oladi. U badiiy matnning mazmun va shakl uyg'unligini ko'rsatib bera oladi. Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda poetik mazmun bilan yukungan birliklarni aniqlash eng muhim usullardan hisoblanadi. Poetik mazmunga ega bo'lgan pretsedent nomlar onomastikaning birliklari sirasiga kirar ekan, yuqoridagi lingvopoetikaning tasniflari qatoriga poetik onomastikani kiritish muhimdir.

Har qanday fan o'zining tadqiq obyektiga ega bo'lishi kerak. Onomastikaning tadqiq obyekti tildagi har qanday atoqli ot tiplaridir. Lingvopoetika esa til vositalarining badiiy qimmatini tahlil qiladi [3, 9]. Poetik onomastikaning predmeti sifatida poetonim termini qo'llaniladi [13, 29]. Tarixan shakllanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan va nutqimizda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan pretsedent nomlar poetonimlarning bir turidir.

KIRISH. Onomastik birliklarning badiiy matndagi o'rni tadqiqida ikki holat ko'zda tutiladi: 1) yozuvchi yoki shoirning so'z xazinasini bilan bog'liq statistik holat aniqlash. Bu muayyan mavzuda olib boriladigan sof lingvistik tadqiqotlar uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin. 2) leksik bazadan ajratilgan ma'lum qatlam birliklarini turli yondashuvlar asosida tahlilga tortish imkonini hosil qilish.

Badiiy matn leksikasining struktur elementini, o'ziga xos qatlamini tashkil etgan antroponimlarning konnotativ, signifikativ va denotativ ma'nosi nomlarning funksional-stilistik vazifasini o'zgartiradi va bu hodisa ularni turli yondashuvlar bilan o'rganishga sabab bo'ladi. Badiiy matndagi onomastik birliklarning ekspressiv xususiyatlari dastlab "onomapoetika" termini ostida o'rganilgan.

Rus tilshunosi N.V.Podolskaya "onomastika, badiiy adabiyotdagi atoqli otlarning uslubiy va ideologik vazifalarini o'rganadigan, muallifning g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan onomastik termin" [12. 28] deb ta'rif etadi.

Onomapoetika masalalariga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova kabi olimlar tomonidan olib borilgan [10. 2000]. O'tgan yillarda badiiy matndagi onomastik birliklarning o'rni haqidagi turli masalalar "poetik onomastika" termini ostida o'rganilgan. Shu xususda ukrain tilshunosi V.M.Kalinkinning doktorlik dissertatsiyasi va ayni dissertatsiya asosidagi "Onim poetikasi" monografiyasi alohida e'tiborga loyiq [6. 1999].

O'zbek onomastikasi terminlariga bag'ishlangan ishlarda onomastik birliklar badiiyati bilan bog'liq terminlar haqida ba'zi fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, R. Nuritdinova atoqli otlarning estetik xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu masalani o'rganuvchi onomastikaning mustaqil yo'nalishi mavjudligini aytadi va bu yo'nalishning o'ziga xos terminlarini quyidagicha tasniflaydi:



1. Nomlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini o'rganadigan ilmiy yo'nalishlar, usullarni bildiruvchi terminlar: adabiy onomastika, adabiy-badiiy onomastika, badiiy adabiyot onomastikasi, badiiy onomastika, badiiy til onomastikasi, onomastik stilistika, dostonlar onomastikasi.
2. Nomlarning uslubiy xususiyatlariga ishora qiluvchi terminlar: atoqli otlarning uslubiy xususiyatlari, antroponimlar uslubiyati, "gapiruvchi nomlar", ismlarning uslubiy xususiyatlari, so'zlaydigan laqablar, "so'zlovchi" ismlar, uslubiy ma'no tashuvchi nomlar, nomning uslubiy-poetik vazifasi, shoirona "chiroyli" ismlar, asarlar onomastikasi.
3. Konkret asar, shaxs, badiiy obrazlar, personajlar nomi bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar: adabiy taxallus, badiiy asarlar nomi, badiiy asarlar lavhasi, badiiy obrazlar nomi, doston nomi, dostonlar onomastikasi, doimiy taxallus, mavsumiy taxallus, personajlar ismi, personajlar nomi, to'qima nomlar, to'qima obrazlar nomi, salbiy obrazlar nomi, to'qima-xayoliy obrazlar, to'qima ismlar [11. 62-63].

N. Mahmudov "Fan tili va til fani" nomli maqolasida "Har qanday fanni o'rganish, o'zlashtirish uchun uning alifbosidan-terminologiyasidan xabardorlik zarur bo'ladi. Ma'lumki, fanning katta-kichik asosiy tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi" [8. 3-10], – deb ta'kidlaganidek, ayni sohaning terminologik tizimi tartibga solinishi, ilmiy jihatdan aniq izohlanishi va unifikatsiya qilinishi kerak.

Ko'rinadiki, turli tilshunosliklarda nomlar poetikasi borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, rus, ukrain, tatar tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. O'zbek tilshunosligida mazkur muammoga bag'ishlangan tadqiqotlar tizimli ravishda maxsus o'rganilgan emas. Ayniqsa, badiiy asarda qo'llangan pretsedent birliklarning lingvopoetik tahlili masalasi dolzarb muammolardan biridir.

Matn tilshunosligi bilan bog'liq tadqiqotlarda „presedent birliklar“ termini bilan umumlashtirilgan alohida hodisa qayd qilinadi. „Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar presedent birliklar“ [14. 87] sifatida olinadi. D.Xudoyberganova mazkur termin tilshunoslikda birinchi marta YU.N.Karaulov tomonidan qo'llanganini aytadi [14. 91] va presedent birliklar ichida presedent nomlarning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tilshunos presedent nomlarning yana bir vazifasi bo'lgan „mikromatn subyekti sifatida matn yaratilishida ishtirok etishi“ ni misollar vositasida yoritadi. D.Xudoyberganovanning o'zbek xalqi milliy mentaliteti bilan bog'liq mashhur nomlar haqida fikr yuritib, ularning matn yaratishdagi o'rni xususida bildirgan mulohazalari tilshunosligimizda bu boradagi ilk qarashlardan biri deyish mumkin [14. 91].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu maqolamizda bir necha metodlarga murojaat qildik. Aynan Abdulla Qahhor hikoyalarida keltirilgan pretsedent birliklarni aniqlashda lingvopoetik tahlil metodi biz uchun muhimdir. Chunki lingvopoetik tahlil asarning tili, balki mazmun jihatini ham qamrab oladi. U badiiy matnning mazmun va shakl uyg'unligini ko'rsatib beroladi.

Lingvopoetik tahlil usulining rivojiga jahon tilshunosligida G.E.Lessing, V.V.Vinogradov, F.Shiller, Gumbolt, A.A.Potebnya, G.O.Vinokur, V.M.Jirmuniskiy, V.Ya.Zadornova, L.V.Shcherba, O.S.Axmanova kabi olimlar salmoqli hissa qo'shdilar. O'zbek tilshunosligida badiiy matndagi



onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili bilan D.Andaniyazova va D.Xudoyberganovalar jiddiy shug'ullanganlar.

Badiiy asarning lingvopoetik tahlili badiiy matnni ham lingvistika, ham poetika nazariy bilimlari jihatidan o'rganishni taqozo qiladi. Bunda, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi pretsedent birliklarni lingvopoetik jihatdan tadqiq qilishda, badiiy matnning onomastik ko'lam muammosi hal etilishi ko'zda tutilmoqda. Onomastik ko'lamga lingvopoetik yondashuvda ijodkorning badiiy maqsadi uchun qo'llanilgan nomlarga tahlilga tortiladi Badiiy matnning onomastik ko'lam asarning biror janr tabiatiga xos effektini yaratishda, matnning serqatlamligini ta'minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o'ziga xos madaniyatini ko'rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham badiiy matndagi pretsedent birliklarning chegarsini aniqlash muhimdir. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi pretsedent nomlarni aniqlash, ularning funksional-stilistik xususiyatlarini ochish maqolamizning muhim vazifasi hisoblanadi.

NATIJALAR. Abdulla Qahhor hikoyalarida bir qancha onomastik birliklar qo'llangan. Ular orasida til egalarining lisoniy xotirasida saqlanib qolgan, mashhurlik belgisiga ega bo'lgan va yozuvchining badiiy maqsadini ochishga xizmat qilgan birliklar, ya'ni pretsedent birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Pretsedent birliklardan foydalanish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Badiiy asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi onomastik birliklardan pretsedent birliklar bugungi kunda mashhurlik belgisiga ko'ra **universal, sotsium** va **milliy** pretsedent birliklardan iborat bo'ladi. Universal pretsedent birliklar deganda deyarli barcha uchun tanish bo'lgan tarixiy yoki to'qima nomlar tushuniladi. Sotsium pretsedent birliklar ma'lum ijtimoiy guruhlar uchun taniqli bo'lgan atoqli otlardir. Milliy pretsedent birliklar esa o'zbek xalqining milliy ma'naviyatini ko'rsatishga qaratiladi. Abdulla Qahhor ijodida pretsedent birliklardan foydalanishning o'zgachaligini ko'rishimiz mumkin. Uning hikoyalarida taniqlilik belgisiga ko'ra milliy pretsedent birliklar salmoqli o'rinni egallaydi. Ular orasida pretsedent nomlar alohida ahamiyatga ega. Pretsedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar bo'lib, ular ko'p qirrali hodisa sifatida tilshunoslikda turli aspektlarda o'rganilishi lozim. Bu borada tilshunos presedent nomlarning lingvopoetik tadqiqini ham nazarda tutgan bo'lib, bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi ko'pchilikka tanish bo'lgan mashhur nomlarning ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita bo'la olishini yoritish mumkinligini aytadi [5. 76-77]. Shu o'rinda aytish kerakki, Abdulla Qahhor, asosan, tarixiy shaxslarning nomidan foydalanilganining guvohi bo'lamiz: *Zuhra yuzi shuvut emas, xotinlarning ko'ngil so'rashini ham, bunga javoban "ko'nglimni ko'targanlaring uchun rahmat" degan ma'nodagi gapni ham eskilik deb bilgani uchun shunaqa qilib turgan ekan, Fotimaga yalt etib qaradi. – Nimadan uyalaman, erkin muhabbat masalasini Navoiy, Tolstoylar ko'targan! – dedi-yu, burilib uyga kirib ketdi. Fotima odamlardan xijolat bo'lib, uni kasalga chiqardi* [1. 123]. Ushbu misolda nomi tilga olingan Navoiy va Tolstoy kabi yozuvchilarni eshitmagan inson bo'lmasa kerak, albatta. O'zining "Xamsa" si va boshqa asarlari bilan o'zbek va jahon adabiyotida beqiyos o'ringa ega bo'lgan Alisher Navoiy ijodida ishq-muhabbat masalasi yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, rus va jahon adabiyotining buyuk namoyondasi Lev Tolstoy muhabbatni tarannum etgan "Anna Karenina" romani bilan butun dunyoga mashhur. Bu ikki ijodkorni hikoyada yozuvchi mashhur tatar shoiri so'zi bilan aytganda, "Muhabbat ul o'zi eski narsa Lekin har bir yurak uni yangilaydi" qabilida keltiradi.



Yozuvchi yana bir hikoyasida: *Mehmon savolimga javob berolmadi. Shundan keyin o'lkamizda jahonga mashhur bo'lib o'tgan bir qancha kishilarning nomini aytib, mehmonni "chaqmoqlab" ko'rdim. Yo'q, mehmon bu odamlardan birontasini, hatto Ibn Sinoni ham eshitmagan ekan* [1. 141]. Sharqda "Shayx ur-ra'is", G'arbda esa "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino O'rta asrlar o'zbek ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning "Al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") kitobi O'zbekiston, balki butun dunyo tibbiyotida mashhur asardir. Bu asar XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan [9. 96]. Mana shunday jahonda mashhur tarixiy shaxslarning birortasini hikoyaning qahramoni tanimasligi achinarli holat ekanligi yozuvchi tomonidan ko'rsatib beriladi.

G'arb madaniyatining shakllanishi haqida gap ketganda buyuk yunon faylasufi Aflotun ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning juda ulkan merosidan G'arb va Sharq mamlakatlari bugungi kungacha foydalanib kelishmoqda. Aflotun, ya'ni Platon nomi esga olinganda ham matematik, ham yozuvchilik faoliyati hamda Afinadagi ilk akademiyaning asoschisi ekanligi manbalardan ko'rinadi [2. 2000]. Mana shunday aql kuchiga ega bo'lgan shaxs, albatta, o'zbek yozuvchilari e'tiboridan chetda qolmaydi. Xususan, ijodkorlarimizdan Omon Muxtor unga bag'ishlab "Aflotun" romanini ham yozgan. Yozuchi Abdulla Qahhor esa "Bashorat" hikoyasida buyuk aql sohibi ramziy ifodasini berishda Aflotun tarixiy antroponimidan foydalangan: – *Hamma yerlaringga ko'knor ektirasan! Rais ko'ndi. Said Jalolxon ketdi. Yo'lda uning boshiga yana bir fikr keldi: "Raisga qilgan do'qimni hukumatga qilsam, o'zimni xon ko'tara olmaymanmi?" Bu fikrdan uning kallasi yana ham kattaroq bo'lib, juda og'irlashib ketdi. "Aql kallani bunday katta qilsa va bunday og'ir bo'lsa, – der edi u ichida, – Aflotunning o'z ajali bilan o'lganiga ishonmayman, uni albatta kallasi bosib o'ldirgan"* [1. 173].

Abdulla Qahhor hikoyalarida universal pretsedent nomlardan ham o'rinli foydalanilgan: 1) ... *O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to'rt payola choy ichdi va terladi. – chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, – dedi yuzidagi terni artib. – Hmm... soqol ham o'sibti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun jani to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...* [1. 179] 2) *Hamida biologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zining oqlash nutqini fiziologik asoslar ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi. – Hmm... – dedi Baqoyev, – Chexov to'grisida o'zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi **Pushkin va Lermontov**larning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qarmasdan mutlaqo farq qiladi! – Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, dedi Mukarram, – bizning kutubxonada uning **Maksim Gorkiy** bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak* [1. 173]. 3) *Hatto **Saltikov** bilan **Shchedrin** degan mashhur yozuvchilarni bir-biridan farq qilolmaydi, ikkovi bitta odam deydi. Kula-kula o'libman. Sizga aytaman deb esimdand chiqibdi* [1. 84]. Misollarda keltirilgan universal pretsedent nomlarni har bir o'zbek kitobxonasi hech qiynalmasdan o'zlashtira oladi.

Pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o'tuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar, tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratish eng muhim manba hisoblanadi [14. 2015].



Onomastik birliklarning har qanday turi badiiy matnda pretsedent birliklar bo'lib kelishi mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "Dumli odamlar" hikoyasida toponimlarni pretsedent birlik sifatida ko'rishimiz mumkin: *Men o'n bir yil shu idorada kichik bir lavozimda turib, pensiyaga shu yerdan chiqqanman. Shu o'n bir yil davomida qulog'imga kirgan kalimalar o'rnashib, undan bir so'z, bundan bir so'z cho'qib, tilga havas paydo qilganimda esa idora xizmatchilarining yordami bilan kitob talab ingliz tilini uncha-muncha bilib oldim. Ingliz tiliga moyil bo'lganim, albatta, tasodifiy emas, bolaligimda Amerikaning ta'rifini ko'p eshitganman: ana osmontepar imoratlari, ana osma ko'chalaru...* [1. 180]

Hikoyadagi voqealar Amerika diyorida sodir bo'lmaydi. U yerdagi binolar-u ko'chalarning ta'rifini yozuvchi keltirib ham o'tirmaydi. Pretsedent birliklarga xos bo'lgan insonning lisoniy xotirasida mavjudlik yoki mashhurlik belgilari asosida hikoyada qo'llangan birgina Amerika toponimi u yerning manzarasini bevosita ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Bu yerda Abdulla Qahhorga xos bo'lgan so'zga xasislik va mazmunga kenglik yaqqol ko'rinadi.

MUHOKAMA. Badiiy asarlarni lingvopoetik tahlil orqali o'rganishda yozuvchining yashagan davri, asarning yozilish sharoiti, yozuvchining asarni yozish orqali ifodalamoqchi bo'lgan maqsadi muhim o'rin tutadi. Abdulla Qahhorning "Asror bobo" hikoyasi urush davri voqealarini o'z ichiga oladi. Hikoya 1943-yil, ayni 2-Jahon urushi pallasida yozilgan bo'lib, urushga barcha o'z hissasini qo'shmoqda edi. Shu asnda hikoyaning qaramonlaridan biri Asrorqul ham bu ishga bel bog'laydi. Uning yoshi katta bo'lishiga qaramasdan yosh yigitlardagi kabi g'ayrat bilan ishlashi, tuman hokimi kotibining ham diqqatini tortadi: *Otaning o'zi samovarni jo'nashtirib yuborganidan keyin ko'p ish qildi. Ilg'or brigadalarning tuman yig'inida hokimning kotibi otaga katta baho berdi: "Asrorqul ota tumanimizda eng zo'r tashviqotchi... Ota shu yerda turib Berlinga o't qo'yayotibdi" dedi* [1. 100]. Parchani o'qiganimizda Berlin shahrida bo'layotgan urush va uning maydonida jon talashayotgan necha yurtdoshlarimiz ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Pretsedent birliklarning konnotativ ma'nolari orqali ifodalanayotgan bu ma'no metonomik xarakterga ega.

Abdulla Qahhorning boshqa hikoyasida ham toponimlarning metonomik ma'nolarda kelganini aytishimiz mumkin: *Faxriddin kaklikka suv quyayotib otasiga qarab qo'ydi. – Ha, o'g'lim, xafa bo'layotibsanmi? – dedi otasi. – Yo'q, – dedi Faxriddin cho'zib. – Xafa bo'lma. Aravaga odam yubordim. Kasalxonaga yuboramiz. Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa xotinning urug'i Hirotdan kelgan emas!* [1. 153]

O'zbek onomastikasida hali yetarlicha tadqiq qilinmagan sohalardan biri xrononomiyadir. Xrononomiyani tashkil etgan birliklar deb xronimlar o'rganiladi. Xrononim (yunoncha xronvog – vaqt, muddat, onoma – atoqli ot) – tarixiy davrlar va bosqichlarning atoqli oti hisoblanadi [4, 91]. Biz tadqiq etayotgan Abdulla Qahhor hikoyalarida xrononimlarning ba'zi ko'rinishlari uchraydi: *Boqi mirzo shu nom bilan o'z shaharida ma'lum kishi edi. U Nikolay zamonasida shirkatlarda, fermalarda mirzoldik qilib, o'z xizmatini manzur qilgan edi* [1. 165]. Ijodkorning "Mirzo" hikoyasidagi ushbu parchada Nikolay zamoni xrononimi birikma holida bo'lib, Rossiyaning so'nggi imperatori hukmronligi zamonini o'zida aks ettiradi. Yozuvchining boshqa hikoyalarida ham xuddi shu birikma pretsedent birlik sifatida o'zida muallifning fikrini tasdiqlash hamda dalillash vazifalarini mujassam etgan. Quyida misollarga murojaat qilamiz: 1) *Nikolay zamonida mayiz qimmat, ko'knor arzon edi: hozirgi zamonda mayiz arzon, ko'knor qahat. Esizgina o'sha vaqtda chala siqib tashlangan ko'knorlar!* [1. 170] 2) *Shunda o'tirganlardan*



biri, intihosiz gapdan zerikdi shekilli, qattiq esnab, dedi: – men sizga aytsam, mulla Norqo‘zi, gap paranjida emas, Nikolay zamonida islovotdagi xotinlar bosh yalang emas edi-ku! [1. 88] “Asror bobo” hikoyasida Nikolay II ga nisbatan Oq poshsho nomi qo‘llanilishi va vaqtni ifodalovchi yil so‘zi bilan birgalikda kelishi natijasida xrononim birlik hosil bo‘lgan: Oq poshsho mardikor olgan yili bir kuni kechqurun Haydar ota Usta Mo‘minning do‘koniga chiqsa, bir begona kishi dam bosib o‘tiribdi, surishtirsa “ultarmalik qochoq” deyishdi [1. 92].

Ijodkor tomonidan badiiy to‘qima bo‘lgan “so‘zlovchi nomlar” badiiy matnda ma‘lum funksiyalarni o‘z zimmasiga oladi. Ularda qahramonning xarakteri haqida ma‘lumot anglashiladi. Bu holatni Abdulla Qahhorning “So‘ngan vulqon” hikoyasining bosh qahramoni bo‘lgan Shermat otaga berilgan laqabda ham ko‘rishimiz mumkin: *Shermat aka ikkovimiz o‘ttiz besh yillik qadrdonmiz. Men o‘ttiz besh yildan beri shu kishining rahbarligida ishlab kelayotibman. Bu kishi meni qorovullikdan izvoshchilikka, izvoshchilikdan shofyorlikka, undan xo‘jalik mudiri vazifasiga ko‘targan, alhol shu vazifada barqarorman. Bu o‘ttiz besh yil davomida biz yettita idorani ko‘rdik. Bu kishi qaysi bir idoraga o‘tmasin, uch kunga qolmay meni ham olib ketar edilar. Shuni aytib o‘tishim kerakki, bu yillar davomida men tobora pastdan yuqoriga ko‘tarilgan bo‘lsam, (tavba qildim, birovga kulish kerak emas), bu kishi mansab zinasidan pastga yumalab keta berdilar. Men bunga hammavaqt achinib kelganman, hozir ham achinaman. Men bu yerda martaba to‘g‘risida gapirayotganim yo‘q, katta amalsiz ham bu kishining martabasi ulug‘, obro‘yi joyida, otini hech kim toq aytmaydi: Shermatjon aka-chi Shermatjon aka, Shermat ota-chi Shermat ota!.. Men boshqa narsaga achinaman, bu kishi katta ishlarni o‘ynab-kulib bajarar edilar, past ishlarda qiynalib qoldilar, birinchidan, katta ishda qo‘li uzun, hammaga har qanday gapi o‘tardi, “sendan ugina, mendan bugina” degandek, qaysi idora boshlig‘iga nimani iltimos qilsalar iltimoslari yerda qolmasdi; ikkinchidan, idorada qanday yaxshi ish bo‘lsa savobi rahbarga, gunohi faqir-fuqaroga tegardi; uchinchidan, hisobot, ma‘ruza, nutq kerak bo‘lsa yordamchilar hammasini boplab berardi, Shermatjon akaga buni arab alifbosiga ko‘chirtirish (Shermatjon aka yangi alifboni uncha bilmaydilar), tegishli joyda o‘qib berish qoldirdi, xolos; to‘rtinchidan, u kishiga gazeta o‘qish kerak emas, yordamchilariga “gazetada idora va rahbarlikka tegishli nima gap chiqsa o‘qib mazmunini menga aytasan”, deb qo‘yardilar. ...Bir necha kundan keyin tuman rahbari Shermat akani suhbatga chaqirdi. Suhbatda nima gaplar bo‘lganini Shermat aka menga aytmadi, lekin jon-jonidan o‘tib ketgan bir narsani aytdi: uni “So‘ngan vulqon” deb atashibdi [1. 137].*

CONCLUSION. Pretsedent birliklarning mashhurlik va til egalarining xotirasida mavjudlik belgilari eng muhim begilaridan sanaladi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi pretsedent birliklar ushbu belgilar asosida o‘rganilganda ularning ikkala belgisini o‘zida mujassam etgan pretsedent birliklar ham, bitta belgisini o‘zida namoyon etgan onomastik birliklar ham uchraydi.

Pretsedent birliklarga xos bo‘lgan mashhurlik, ramziylik, til egalarining xotirasida oldindan mavjudlik belgilari asosida badiiy asarlar onomastikasini lingvopoetik tahlil qilish bugungi kundagi tadqiqotlarning salmoqli qismini tashkil qilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, pretsedent birliklarning hali o‘rganilishi muhim bo‘lgan tomonlari talaygina. Xususan, Abdulla Qahhor asarlaridagi pretsedent birliklarning badiiy asarning mazmun mohiyatini ochishdagi vazifalarini o‘rganish muhimdir.



References:

1. Abdulla Qahhor. Anor: Qissa va hikoyalar. – Toshkent, 2005. B-141.
2. Ayupov A. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroonimikasi. Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – Toshkent, 2013. B – 9.
4. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. B-91
5. Гунко Ю.особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка.дисс....д-ра.филол.наук.-Санкт-Петербург, 2002 - С.76-77
6. Калинин В.М.Поэтика онима.-Донецк.1999.
7. Kuldosheva Sh. O. Tarixiy shaxslar nomi asosida shakllangan pretsedent nomlar \\\ TA'LM VA INNOVATION TADQIQOTLAR. Ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya. <http://conf.sciencebox.uz/>. B.41.
8. Mahmudov N. Fan tili va til fani//O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2013. - №5 - B.3-10.
9. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. (IV asrdan XVI asrgacha). – Toshkent, 2017. B – 96.
10. Михайлов В.Н. собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в их функции и словообразование. автореф. дисс. канд. филол.наук.-М.1956. Магазаник Э.Б Поэтика имен собственных в русской классической литературе. Автореф. дисс. канд. филол. наук.Самарканд.1967 Колоколова Л.И.Ономастика в художественной речи А.П.Чехова. автореф. дисс. канд. филол. наук.-Волоград.2000
11. Nuritdinova R. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol.fan.nomz...diss.-Toshkent, 2005.- B.62-63
12. Подолска Н.В. Словарь русской ономастической терминологии.-М:Наука,1998. - S.28
13. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. – Qarshi, 2022. B- 29.
14. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Filol. fan. dokt...diss. – Toshkent, 2015.
15. O'ralova Ch., Boymatov S. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi \\\ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021:5.423. B – 466-467.
16. Uralova Ch., Boimatov S. Linguistic and poetic research in modern linguistics \ The Eastern Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 2021:5.423. pp. 466-467.
17. Begmatov E. The antronymy of the Uzbek language. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 2013. B – 9.
18. Radjabov F. Linguistic and poetic features of onomastic units in the works of Zahiriddin Muhammad Babur. Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences dissertation, 2022. B - 29.
19. Abdullah Kahhar. Garnet: stories and stories. - Tashkent, 2005. B-141.



20. Mukhamedzhanov A. The history of Uzbekistan. (From the IV to the XVI centuries). - Tashkent, 2017. B – 96.
21. Aupov A. National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume one. Tashkent, 2000.
22. Khudoiberganova D. Anthropocentric interpretation of literary texts in the Uzbek language. Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences dissertation
23. Begmatov E., Ulukov N. Explanatory dictionary of terms of Uzbek onomastics. – Namangan, 2006. B-91
24. Podolskaya N.V. Dictionary of Russian onomastic terminology.- Moscow: Nauka, 1998. - p.28
25. Mikhailov V.N. the essence of the names of the characters of Russian fiction of the XVIII I of the first half of the XIX V IX functions I word formation. abstract of the dissertation of the Candidate of Philology.-M.1956. E.B. Magazanik, The poetics of the name of the owners in Russian classical literature. The author's abstract. Diss. Candidate of Philology. sciences. Samarkand.1967 Kolokolova L.I.Onomastics in the Divine Speech of A.P.Chekhov. the author's abstract. Diss. Candidate of Philology. sciences.- Vologda.2000
26. Kalinkin V.M. The poetics of onym.-Donetsk, 1999.
27. Nuritdinova R. Linguistic analysis of the terms of Uzbek onomastics: philol. science.PhD thesis.- Tashkent, 2005.- B.62-63
28. Makhmudov N. The language of science and linguistics//Uzbek language and literature.- Tashkent, 2013. - No.5-B.3-10.
29. Gunko Yu.features of the functioning of the precedent of the whisking in the spoken language of native speakers of the Russian language.Diss....Dr.Philol.sciences.-St. Petersburg, 2002-pp.76-77
30. Kuldosheva Sh. O. Precedent names formed on the basis of the names of historical figures \ education and innovative research. Scientific and technical online conference. <http://conf.sciencebox.uz>\. B.41..